

**O'SMIRLAR KASB TANLASHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLARNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Dumarova Gulfira Kozimbekovna

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar ranglarni, pedagogika va Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Abdumalikova Gulhayo Sherzodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, 104-guruh talabasi

Abdusalomova Mavluda Mansurjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, 104-guruh talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada o'smirlar davrida kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so'z boradi, shuningdek, o'smirlarning kasb tanlashida ota-onalarning roli qanchalik muhimligi to'g'risida bir qancha fikrlar va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kasb, o'smirlar, kasb tanlash, omil, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ota-onalarning roli.

Аннотация

В данной статье говорится о социально-психологических особенностях факторов обуславливающих выбор профессии в подростковом возрасте, а также приводятся некоторые мнения и рекомендации о значимости роли родителей в выборе профессии.

Ключевые слова: профессия, подростковый возраст, выбор карьеры, фактор, социально-психологический характеристики, роль родителей.

Abstract This article discusses the socio-psychological characteristics of the factors that determine career choice in adolescence, as well as some ideas and recommendations about the role of parents in career choice.

Key words: profession, adolescence, career choice, factor, socio-psychological characteristics, the role of parents.

Tadqiqotlarga qaraganda, o'smirlar 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Kuzatishlardan ma'lumki, odatda o'smirlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab qoladilar yoki tavakkaliga ish ko'radilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga o'ziga bo'ladilar.

Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi.

O'quvchilarning ba'zilari kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar. Bunda o'z atroflaridagi yaqin kishilarni nazarda tutadilar, ularning yo'lidan borishni mo'ljallaydilar. Masalan, bir o'quvchi o'qituvchilik kasbini tanladi deylik, agar undan bu kasbni tanlashining sababi so'ralsa, aksariyat o'smirlar kimnidir misol qilib ko'rsatib, unga o'xshashni xohlashini va shuning uchun bu kasbni tanlaganini aytadilar. Bu kabi o'smirlarda kasb tanlash borasida aniq bir maqsad yoki g'oya umuman mavjud emas.

O'quvchilar kolleжда fanlarning asoslaridan bilim oladilar, har qaysi ilk o'spirin fizika yoki matematika bilan tanishadi. Biroq ularning hammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xohlayvermaydi. Unda yer kurrasi o'rganiladi, barcha planetalarning xususiyatlari bilan tanishiladi, uzoq qit'alar, dunyo xalqlari tarixi va san'ati bo'yicha bilimlar beriladi. Ammo barcha o'quvchilar sayyoh bo'lishni istamaydi. Fan asoslari o'quvchilarga keng ko'lamda ma'lumot va axborotlar berishga moslashtirilgan bo'lib, o'spirinlar olingan bilimlarning kelajak, shaxsiy turmush, bilimdon shaxs bo'lish uchun amaliy ahamiyatini anglab olishi kerak.

O'quvchilarda biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasbga qiziqish vujudga keladi. Tanlangan kasbni o'zlashtirish bilan bog'liq fanga qiziqishni ham orttiradi. Natijada to'garak mashg'ulotlariga va fakultativ kurslarga ko'chish imkoniyati vujudga keladi. Bunday imkoniyatdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kasb tanlash jarayonida o'smirlarga o'qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak.

«Komil inson» tarbiyasi hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Dunyoda birorta ota-ona yo'qki, farzandining jamiyatda o'z o'rniga, mustahkam mavqega ega bo'lishini istamagan va shu farzand orqali boshini baland ko'tarib g'ururlanib yurishni orzu qilmagan bo'lsa. Sharq xalqlarida bunga qadimdan alohida e'tibor berilib, o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Shunday ekan, bola ulg'ayib borishi bilan uni biror kasb-hunarga yo'naltirib borishda bosh-qosh bo'lishi, maslahatlar berib borish, mazkur yo'nalish bo'yicha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ota-ona tarbiyasining muhim bir qismi hisoblanadi.

Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rang-barang kasblar olamida bola qanday qilib mo'ljal olishi kerak?

Hayot yo'lini, mehnat faoliyatini to'g'ri boshlash uchun qaysi kasbni tanlagan ma'qul? Bolaning ichki dunyosida shu kabi savollar g'ujg'on o'ynar

ekan, shu asnoda, albatta, birinchi yordam sevimli oilasidan, ya'ni ota-onasidan bo'lmog'i lozim. Ota-ona esa, albatta, bolaning qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlariga tayangan holda ish ko'rishlari muhim ahamiyatga ega.

Xo'sh bular nima? U bolada qanday aks etadi?

Qiziqish- bu odamning muayyan mehnat sohasidagi ijobiy munosabatlari bo'lib, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lami bolaning bilim darajasini hamda muayyan narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib-ulg'aya borib, maylga, bolaning muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borishi uchun intilishiga aylanadi.

Qobiliyat esa odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozanishiga yordam beradigan individual psixologik xususiyatdir. Demak, ota-ona shularning barchasini hisobga olgan holda bu masalaga to'g'ri yondoshishi kerak bo'ladi, chunki boshlang'ich tarbiyani bola oilada oladi. Buning uchun ishni nimadan boshlagan ma'qul?

Bizningcha bolaga juda erta vaqtlardan oq turli kasb-hunarlar haqida baholi-qudrat ma'lumot va tushunchalar berib borish joiz. Sababiki ular o'zlarini qiziqtirgan kasb sirlariga, ularning yaxshi-yomon tomonlariga barvaqt e'tibor bilan qaraydigan bo'lishadi. Har bir kasbga a'lo o'qish orqali erishish mumkinligini bolaga alohida ta'kidlash zarur. Vaholanki yoshlikda olingan puxta bilim faqat kasb-hunardagina kerak bo'lmay, balki insonning butun hayot faoliyatini, kelajagini belgilaydi. Busiz komil inson bo'lib yetishish yoki mukammallik darajasi sari borish mumkin emas.

Bola kasb tanlayotgan vaqtda oila va maktab hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Bola oilada olgan tarbiyasi va maktabda olgan ta'limi uning kasbni to'g'ri tanlashiga yordam beradi. Maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblangan kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga ham innovatsion tus berish, uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik-psixologik, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-uslubiy ta'minot va kadrlar salohiyatini yaxshilash, jarayonga jamoatchilik hamda ota-onalarni faol jalb etish zarurati mavjud. O'quvchi kasbni to'g'ri tanlashida kasb-hunarga yo'naltirishga doir ilmiy-ommabop adabiyotlar, audio, video multimedia materiallarini yaratish, ko'paytirish va tarqatish ishlarini, tuman va viloyatda mavjud professional ta'lim muassasalari haqidagi ma'lumotlar bankini yaratib qo'yish, texnologiya darslarida o'qituvchi o'quvchining qiziqishlari asosidagi savollarga yetarlicha javob bera olishi va o'quvchini kasb -hunarga to'g'ri yo'naltira bilishi muhim

ahamiyatga ega. O'quvchi ta'limning keyingi bosqichini qayerda davom ettirishini aniqlashga ikkilanayotgan bo'lsa, bunday vaqtda maktab psixologi, maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi, sinf rahbari va ota-onalar hamkorligi yordamga keladi. Bunda ota-onaning farzandining qiziqishlari haqidagi ma'lumotlari, maktab psixologi o'tkazgan metodikalar natijalari va o'quvchining bevosita qiziqishlari asosida unga yo'l yo'riq ko'rsatiladi.

Agar bolasining qiziqishlariga qarshi chiqayotgan ota-onalar bo'lsa, maktab psixologi va kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutahassisi ota-onalarga kasbiy maslahatlar berib borishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir inson bo'lg'usi kasbini mustaqil o'zi tanlasagina sevib tanlagan kasbiga mehr qo'yadi. Uning zahmati qanchalar og'ir bo'lsada, charchamaydi, nolimaydi. O'zi va boshqa hunarmadlar yaratgan mahsulotlarning qadriga yetadi. Halol mehnat evaziga topgan mablag'larini o'ylab, tejamkorlik bilan sarflaydi.

Hayotda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular farzandining hohish-irodasi, Qobiliyatlarini hisobga olmasdan, o'zlariga qulay bo'lgan kasb-hunarni egallashga majbur qiladilar. Natijada, ota-onaning qistovi bilan o'qishga kirgan farzand, o'quv dargohini bitirib chiqqach mutaxassislikka emas, shunchaki diplomga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunday mutaxassislikdan na o'zi, na jamiyat naf ko'radi. Oilada ota-onalarning o'z kasbiga bo'lgan sadoqati, bir-biriga do'stona munosabati, mehribonligi, g'amho'rliqi, o'z navbatida oilada farzandlarning kasbga, hayotga bo'lgan munosabatining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Aksariyat kasb tanlash bosqichida bo'lganlar faqat bitta narsani bilishadi. Undan keyin nima qilish kerakligini umuman bilmasliklari barchamizga ayon. Shuning bilan birga qaror qabul qilish natijasida o'ziga xos qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Buning uchun sizga tanlagan kasbingizga mos yoki mos kelmasligingizni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan testlarni maslahat beramiz. Shuni unutmang, siz bir vaqtning o'zida 3-4 ta testdan o'tsangiz, ularning natijalari mutlaqo bir-biriga teskari bo'lishi mumkin. Bunday paytda siz kasbga yo'naltirish bo'yicha qulay testni tanlashingiz lozim. Psixolog E.Suslovaning fikriga ko'ra, test to'plami mazkur soha mutaxassislari tomonidan tayyorlanish hamda individual ravishda tanlashi kerak. Shuni esda tutish kerakki, test natijalariga "hukm" deb qarash kerak emas. Biz psixik xususiyatlar va intellektni hisobga olgan holda aniq bir faoliyat turiga nisbatan moyillik xususida fikr yuritamiz.

O'spirinlarda kasblar haqida yaqqol tasavvurlar bo'lmasligi sababli, ular xatolarga yo'l qo'yadilar. Tanlangan va tanlashi zarur bo'lgan kasb qanday

shaxsiy fazilatlarni talab qilishini tushunib yetmaydilar. Biroq, bunday ko'ngilsizliklarni oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

- kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish;

- psixologlarning kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'quvchilarga kasblar yuzasidan maslahatlar berishi;

- psixolog va ota-onalar bilan kasbga yo'naltirish tadbirlarini ko'rib chiqishi;

- o'smirlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;

- mehnat ta'limi darolarida yuqori sinf o'quvchilarini kasbga tayyorlash va qiziqish uyg'otish;

- kasbga yo'naltirish yuzasidan o'smirlar orasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish va psixologik tayyorlash kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. E. G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020, 288 bet.

2. Ne'matov Faxriddin Begmat o'g'li. O'spirinlik davrida kasb tanlash muammolari.

3. Sh.M.Kenjayeov. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ota-onalar va maktab jamoasining ma'suliyati.